Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvga oid dolzarb masalalar	701
Sharofat Juraqulova Baxtiyorovna	
Bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining sun'iy intellekt kompetensiyasi.....	704
Ibragimova Hilola Bahodirjon qizi	
Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida kurash sport turini keng rivojlantirish	709
Ochilov Elbek Olimovich	
Muhandislik grafikasi ta'limida talabalarining grafik ishlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish.....	712
Ashirboyev A. O., Muxamedjanova G. J.	
Futbol mashg'ulotlarida o'quvchilarda jamoaviy ruhni pedagogik usullar bilan rivojlantirish	715
Axmedjanov Shuhrat Boltayevich	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish	718
Bamullayeva Shodiyona Nasrullo qizi	
Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarining sifat va samaradorligini oshirishning nazariy hamda ilmiy asoslari	721
Esanov Muzaffar Xoshimovich	
Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	726
Eshmuminova Dilshoda Iskandarovna	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida pedagogik yondashuvlarning roli	730
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Arab xattotlik san'atining rivojlanishi.....	733
Mamarajabov Mirqosim Ramazon o'g'li	
Educational Effectiveness of the Question-and-Answer Technique in Working With English Texts	737
Muradulloyeva Sevinch Soxibjon qizi	
Boshlang'ich sinf matematika va geometriya darsliklarida STEAM yondashuvi asosida o'qitishning imkoniyatlari.....	740
Nazarova Shahzoda	
Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etishning metodik asoslari (sinfidan tashqari ishlar misolida)	744
Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari	748
Normaxmatov Ilhom Zayniddinovich	
Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari.....	751
Qurbonov Sanjar Rajabboyevich	
Sportchi salomatligini baholashda zamonaviy texnologiyalar.....	754
Samandarov A. X.	
Sport tashkilotlari uchun marketing, e-marketingning foydalari	758
Samatov Javlonbek Abdukayumovich	
Futbol o'yinlari orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya pedagogikasining ahamiyati	762
Sattarov Qarshiboy Norqulovich	
Kichik maktab yoshidagi bolalarda lingvistik kreativ intellektni shakllantirishning pedagogik shartlari	765
Shodiyev Rizamat Davronovich, Jabborova Maftuna Komil qizi	
Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda direktorning strategik yondashuvi.....	770
Tog'ayeva Shahnoza Shavkatovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tinglash	774
Xodjayeva Nilufar Latipovna	
Talabalarda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish orqali sog'lom fikrlarni shakllantirish masalasi.....	778
Xudayberganova Nargisa Qurbonbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati	782
Kursanova Marjona Baxtiyor qizi	
Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida	785
Yoqubaliyeva Dilafruz Payzidin qizi	
Tibbiy pedagogika: kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi shakllantirishning psixopedagogik asoslari.....	788
Ziyatov Muhammad Namazovich	
Интерактивное обучение в развитии личности и критического мышления студентов	792
Рысова Галия Байбулатовна	

Значение искусственного интеллекта в области педагогики на основе мультимедийных приложений	795
Begaliyev Fayzali Umaraliyevich	
Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tibbiy profilaktik ishlar	798
Mahmudov Otamurod Hoshimovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida haykaltaroshlik san'ati bilan korruptsiyaga qarshi boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish	802
Toshpulatova Fotima Saydullayevna	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari	805
Abdulvohidov Turg'unali Abduqaxxor o'g'li	
Zamonaviy pedagogik jarayonlarda uzluksiz kasbiy rivojlanish va uning o'quvchilarning natijalariga ta'siri	808
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Tibbiyot ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	811
Amonova Madina Furkatovna	
Matematika fanini o'qitishda fanlararo integratsiya.....	814
Arabboyeva Zamiraxon Tadjibayevna	
PISA 2025 tadqiqotlariga doir tajriba sinov ishlari (O'zbekiston misolida).....	817
Doniyorov Muxiddin Normamatovich	
Maktabgacha ta'limning rivojlanish markazlarida ta'lim-tarbiya jarayonida o'yinlardan foydalanish va tahlil qilish.....	820
Eshmuratova Gauxar Maxsudovna	
Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish	824
Matjanova Gulzada Annabayevna	
AI-Xorazmiy asarlari vositasida talabalarda analitik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	828
Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat tarbiyasini shakllantirish	832
Rahmonova Zamiraxon Yakubovna	
Jonli tabiat burchagini tashkil etish metodikasi.....	835
Yaylovboyeva Maftuna Lochinbek qizi	
Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda raqamli intellekt (DQ) va divergent fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.....	838
Yusupova Xabiba Iriskulovna, Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi, Xusanova Dilraboixon Botiraliyevna	
Integratsiyalashgan ta'lim jarayonida yaratiladigan metodikalar va loyiha ishlari.....	843
Ergasheva Mahbuba	
Инновационные педагогические подходы в системе образования и их эффективность	846
Уринбаев Исроилжон Кадиржонович	

AL-XORAZMIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALARDA ANALITIK FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI

Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

O'quv-uslubiy boshqarmasi, talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: Maqolada Al-Xorazmiy ilmiy merosi asosida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish masalasi yoritilgan. Al-Xorazmiy tomonidan ishlab chiqilgan algoritmik tafakkur, matematik modellash tirish va tizimli tahlil metodlari ta'lim jarayoniga joriy etilganda, talabalar mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin. Shuningdek, maqolada Al-Xorazmiy ilmiy yondashuvlarining zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati, pedagogik shart-sharoitlar va didaktik materiallardan foydalanish usullari ko'rib chiqilgan. Muallif tomonidan ta'lim tizimiga Al-Xorazmiy ilmiy merosini tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Al-Xorazmiy, analitik tafakkur, algoritmik tafakkur, matematik modellash tirish, ta'lim metodologiyasi, tizimli yondashuv, ilmiy meros, zamonaviy pedagogika, tanqidiy fikrlash.

Abstract: This article explores the development of analytical thinking in students based on the scientific heritage of Al-Khwarizmi. By integrating Al-Khwarizmi's principles of algorithmic thinking, mathematical modeling, and systematic analysis into the educational process, students can enhance their abilities to think independently, analyze problems, and find scientifically grounded solutions. The paper also examines the significance of Al-Khwarizmi's scientific approaches in modern education, the required pedagogical conditions, and the effective use of didactic materials. The author presents recommendations for incorporating Al-Khwarizmi's scientific heritage into the educational system.

Key words: Al-Khwarizmi, analytical thinking, algorithmic thinking, mathematical modeling, educational methodology, systematic approach, scientific heritage, modern pedagogy, critical thinking.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос развития аналитического мышления у студентов на основе научного наследия Аль-Хорезми. Внедрение принципов алгоритмического мышления, математического моделирования и системного анализа, разработанных Аль-Хорезми, в образовательный процесс способствует развитию у студентов способности к самостоятельному мышлению, анализу проблем и нахождению научно обоснованных решений. Также в статье анализируется значение научных подходов Аль-Хорезми в современной образовательной системе, педагогические условия и способы использования дидактических материалов. Автор предлагает рекомендации по внедрению научного наследия Аль-Хорезми в систему образования.

Ключевые слова: Аль-Хорезми, аналитическое мышление, алгоритмическое мышление, математическое моделирование, методология образования, системный подход, научное наследие, современная педагогика, критическое мышление.

KIRISH

Inson tafakkuri jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi ijtimoiy, madaniy va ilmiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, inson tafakkuri rivojining o'ziga xos jihatlaridan biri – bu analitik fikrlash qobiliyatidir. Analitik tafakkur insonning murakkab masalalarni tahlil qilish, muammolarni yechish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari taraqqiyoti davrida ushbu ko'nikmalar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki inson hayoti va kasbiy faoliyatining har bir jabhasida mustaqil tahlil qilish, dalillarga asoslangan holda fikr yuritish va mantiqiy xulosalar chiqarish muhim sanaladi. Shu bois ta'lim jarayonida talabalar tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish va ilmiy izlanishlarga yo'naltirish pedagogikaning asosiy maqsadlaridan biriga aylanmoqda.

Bu jarayonda tarixiy-ilmiy merosga murojaat qilish ayniqsa muhimdir. Chunki o'tmishda shakllangan ilmiy tamoyillar va yondashuvlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Xususan, buyuk alloma,



matematik va astronom Al-Xorazmiy tomonidan ilgari surilgan ilmiy g'oyalar va usullar talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish uchun samarali vosita bo'la oladi. Al-Xorazmiy IX asrda yashab ijod qilgan bo'lsa-da, uning ilmiy yondashuvlari hozirgi zamonaviy fanlar, ayniqsa matematika, informatika va muhandislik sohalari rivojida asosiy tamoyillardan biri sifatida xizmat qilmoqda. Uning "Al-jabr va al-muqobala" asari nafaqat algebra fanining mustaqil yo'nalish sifatida shakllanishiga zamin yaratdi, balki matematik modellashirish, algoritmik tafakkur va tizimli tahlil qilish tamoyillarini ham rivojlantirishga xizmat qildi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Al-Xorazmiy ilmiy merosining o'rganilishi va uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish masalasini o'rganishda Al-Xorazmiy ilmiy merosi alohida ahamiyatga ega. Uning "Al-jabr va al-muqobala" asari matematik tafakkur va algoritmik yondashuvning shakllanishida tamal toshi bo'lib xizmat qilgan. Alimov raqamli ta'lim jarayonida Al-Xorazmiy tamoyillarining o'quvchilarda mantiqiy fikrlash va muammoli vazifalarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishdagi rolini chuqur tahlil qilgan. Raximov esa matematik tafakkurni rivojlantirishda algoritmik yondashuvlarning pedagogik samaradorligini o'rganib, aynan bosqichma-bosqich fikrlash jarayonining talabalarda tahliliy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Dunlop tomonidan Al-Xorazmiyning algebra fanidagi o'rni chuqur yoritilgan bo'lib, u matematik bilimlarni tizimlashtirish va universalashtirish yo'nalishidagi yirik qadam sifatida baholanadi.

Hoyrup o'z tadqiqotida algoritmik fikrlash va algebraik tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatgan holda, Al-Xorazmiy asarlarining nafaqat tarixiy, balki zamonaviy axborot texnologiyalari rivojiga ham asos bo'lganini qayd etadi. Yusufov o'zbek matematiklarining ilmiy merosini o'rgangan holda, Al-Xorazmiy tamoyillarini nafaqat tabiiy fanlar, balki ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishlardagi ta'lim jarayoniga ham muvaffaqiyatli integratsiya qilish imkoniyatlarini asoslab bergan. Shuningdek, Qosimov tomonidan algoritmik tafakkurni rivojlantirish metodlari zamonaviy ta'lim psixologiyasi nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilinib, talabalar tafakkurini chuqurlashtirishda Al-Xorazmiy tamoyillarining moslashuvchanligi va universal xususiyatlari ta'kidlangan.

Ushbu adabiyotlar sharhi ko'rsatadiki, Al-Xorazmiy ilmiy merosi zamonaviy pedagogikada nafaqat nazariy asos sifatida, balki amaliyotda ham samarali metodologik vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar asosan Al-Xorazmiy asarlarining tahlili, zamonaviy ilmiy adabiyotlar sharhi va ilg'or pedagogik tajribalardan olingan. Analitik tafakkurni rivojlantirish bo'yicha ilgari surilgan nazariy yondashuvlar solishtirildi hamda algoritmik tafakkur va tizimli tahlil tamoyillarining o'quv jarayonidagi amaliy natijalari kontent-tahlil usuli yordamida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Al-Xorazmiy tomonidan ishlab chiqilgan algoritmik tafakkur tamoyillari nafaqat matematik amallar majmui, balki tafakkurning ma'lum bir tartib va izchillik asosida shakllanishiga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuvlar to'plamidir. Al-Xorazmiy ilmiy merosi, xususan, uning algoritmik tafakkur tamoyillari nafaqat matematik hisob-kitoblarni tizimini o'z ichiga oladi, balki inson tafakkurining tartibli va izchil rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Bugungi ta'lim tizimida algoritmik tafakkur keng qo'llanilmoqda, chunki bu usul orqali talabalar murakkab muammolarni oddiy bosqichlarga ajratib, ularni izchil ravishda hal qilishga o'rganadilar. Xususan, zamonaviy dasturlash tillari, axborot texnologiyalari va muhandislik fanlari aynan Al-Xorazmiyning ushbu tamoyillariga tayanadi. Pedagogik nuqtai nazardan, o'quv jarayonida ushbu tamoyillarni qo'llash talabalarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish bilan bir qatorda, ularga tizimli yondashuvni ham o'rgatadi.

Analitik tafakkurni rivojlantirish bugungi ta'lim muhitida keng qamrovli metodologik yondashuvlarni talab qiladi. Chunki faqatgina an'anaviy bilimlarni o'rgatish orqali talabalarda mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish qiyin. Buning uchun ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interfaol metodlardan foydalanish va o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Al-Xorazmiy asarlari negizida analitik fikrlashni rivojlantirish modeli aynan shu maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, u nafaqat matematik va aniq fanlar, balki boshqa ta'lim yo'nalishlari uchun ham universal yondashuvni taklif etadi. Chunki uning ilmiy ishlari faqatgina formulalar va hisob-kitoblarni chegaralanmay, balki mantiqiy fikrlash, algoritmik yondashuv va tizimli tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Refleksiv faoliyatni amalga oshiruvchi pedagoglarning asosiy vazifasi talabalarga tayyor yechimlarni berish emas, balki ularni muammoni yechishga to'g'ri yo'naltirishdan iborat. Pedagogik jarayonda o'qituvchi roli tobora o'zgarib bormoqda. Ilgari o'qituvchi bilimlarni bevosita yetkazuvchi bo'lgan bo'lsa, hozirda u talabalarni mustaqil izlanishga yo'naltiruvchi mentor sifatida ko'rilmogda. Bu shuni anglatadiki, ta'lim jarayonida talabalar

faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishi emas, balki mustaqil tafakkur qilish va muammolarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishlari lozim. Bu jarayonda refleksiv pedagogika tamoyillaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki refleksiya orqali talabalar o'z fikrlash jarayonini nazorat qilish, xatolarini anglash va o'z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli, o'qituvchilarning metodik yondashuvlari zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda ishlab chiqilishi lozim.

Interfaol metodlarning o'ziga xosligi ta'lim ishtirokchilarining yuqori darajadagi emotsional va psixologik munosabatlarini birlashtirishidir. Interfaol ta'lim usullari talabalarni faollikka undaydi va ularning emotsional hamda intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi. Odatda an'anaviy ta'lim tizimida talabalar passiv ishtirok etadilar, ya'ni ular o'qituvchining bayonotlarini tinglab, tayyor bilimlarni qabul qiladilar. Interfaol ta'lim esa, aksincha, talabalarni muammolar yechimiga jalb qilish, ularning tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu usul orqali talabalar mustaqil fikrlash, o'z xulosalarini himoya qilish va jamoaviy ish orqali muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Al-Xorazmiy ilmiy yondashuvlari ham aynan ushbu metodikaga asoslanadi, chunki uning ilmiy ishlari mantiqiy asoslangan bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi.

Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan murakkab muammolar, texnologik taraqqiyotning yuksak sur'atlari va axborot oqimining haddan ziyod ortib borishi shuni ko'rsatmoqdaki, har qanday shaxs mantiqiy, tizimli va tahliliy fikrlash qobiliyatlariga ega bo'lishi zarur. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida Al-Xorazmiy ilmiy merosini chuqur o'rganish va uni zamonaviy ta'lim jarayoniga tatbiq etish talabalarning tafakkur doirasini kengaytirishga, ularni zamonaviy muammolarni ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali hal qilishga o'rgatishga xizmat qiladi. Ayniqsa, uning algoritmik fikrlash bo'yicha tamoyillari, tenglamalarni yechish usullari va hisoblash sistemalarining asosiy prinsiplari talabalarni tanqidiy va ijodiy tafakkurga yo'naltirishda samarali pedagogik vosita bo'lishi mumkin.

Refleksiya va kasbiy ko'nikmalarni hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, analitik-sintetik faoliyatni amalga oshirish, o'zining dars o'tish tajribasini korrektsiyalash – bular pedagoglarning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Refleksiya ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'qituvchilarning dars berish uslublarini muntazam takomillashtirish va talabalar o'z bilimlarini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon tanqidiy fikrlash va analitik faoliyatni rivojlantirishda refleksiya qanday ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Refleksiv ta'lim muhitining yaratilishi nafaqat individual refleksiyani, balki guruhli refleksiyani ham rivojlantirishi lozim. Shu sababli, zamonaviy ta'lim jarayonida refleksiya va analitik tafakkur elementlarini birgalikda qo'llash talabalar tafakkurini chuqurlashtirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida Al-Xorazmiy asarlarining o'rganilishi nafaqat aniq fanlar bilan bog'liq nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki talabalar tafakkurini kengaytirish, ularni tizimli fikrlash va muammolarni ilmiy asoslangan holda yechishga o'rgatish imkoniyatini beradi. Chunki Al-Xorazmiy tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar faqatgina matematik amallar majmui emas, balki tafakkurning ma'lum bir tartib va izchillik asosida shakllanishiga xizmat qiluvchi ilmiy yondashuvlar to'plamidir. Uning ilmiy metodlari zamonaviy ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish, ma'lumotlarni to'g'ri saralash va umumlashtirish kabi qobiliyatlarni rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Shu bois Al-Xorazmiy ilmiy merosi asosida talabalar tafakkurini shakllantirish ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Analitik tafakkurni rivojlantirish zamonaviy o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u talabalar miyasida sabab-oqibat aloqalarini shakllantirish, ularga turli ilmiy jarayonlarni anglash va ularni tizimli tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu borada Al-Xorazmiy tomonidan ishlab chiqilgan algoritmik tafakkur tamoyillari alohida e'tiborga loyiqdir. Algoritmik yondashuv mohiyatan muammolarni bosqichma-bosqich hal etish, ularni mantiqiy asosda tahlil qilish va yechimga erishish tamoyillariga asoslangan. Zamonaviy informatika fanining rivojlanishi ham aynan shu prinsiplarga tayanadi. Shu sababli, Al-Xorazmiy tomonidan ishlab chiqilgan algoritmik tafakkur tamoyillarini o'rganish va amaliy mashg'ulotlarga tatbiq etish talabalar miyasida tizimli fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Al-Xorazmiy asarlarining ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi nafaqat talabalar tafakkurini rivojlantirish, balki ularning mustaqil fikrlash va o'z qarashlarini shakllantirish qobiliyatini ham oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – yoshlarni yangilik yaratishga, innovatsion fikrlashga va ilmiy izlanishlarga yo'naltirishdir. Buning uchun ta'lim jarayonida tarixiy-ilmiy merosni chuqur o'rganish, ilmiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish zarur. Al-Xorazmiy ilmiy ishlari bu jarayonda asosiy metodologik manbalardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Interfaol ta'limda o'qituvchi va talaba munosabatlari o'zgaradi. Natijada talabalar o'qituvchiga nisbatan faolroq bo'ladilar. Bu interfaol ta'lim jarayonining o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. An'anaviy ta'lim modelida o'qituvchi asosiy bilim manbai bo'lib, talabalar esa passiv tinglovchilar rolini bajaradi. Interfaol ta'lim esa, aksincha, talabalarni faol fikrlashga, mustaqil xulosa chiqarishga va muammolarni mustaqil hal qilishga yo'naltiradi. Bunday yondashuvda o'qituvchi talabalarni yo'naltiruvchi va



rag'batlantiruvchi sifatida ishtirok etadi. Natijada talabalarning ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishi ortadi. Interfaol ta'lim metodlarining asosiy tamoyillaridan biri – talabalarni muloqotga jalb qilish va ularning analitik tafakkurini rivojlantirishdir. Al-Xorazmiy ilmiy merosi aynan ushbu metodikaga mos keladi, chunki uning ilmiy ishlari faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki real muammolarni hal qilish, matematik modellarni qo'llash va algoritmik tafakkurni shakllantirishga qaratilgan. Masalan, ta'lim jarayonida talabalar Al-Xorazmiy algebratik tamoyillariga asoslangan murakkab masalalarni jamoaviy ravishda tahlil qilsa, ular nafaqat aniq bilimlarni o'zlashtiradi, balki o'zaro fikr almashish, argumentatsiya qilish va o'z qarashlarini himoya qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Al-Xorazmiy ilmiy tamoyillarini o'quv jarayoniga kengroq tatbiq etish zarur. Birinchi navbatda, uning asarlari asosida maxsus o'quv modullari ishlab chiqilishi, ushbu bilimlar turli fan dasturlariga integratsiya qilinishi lozim. Chunki Al-Xorazmiy ilmiy ishlari nafaqat matematika yoki informatika fanlari doirasida, balki iqtisod, muhandislik, tabiiy va ijtimoiy fanlar yo'nalishlarida ham keng qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, talabalar uchun algoritmik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan maxsus amaliy mashg'ulotlarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu mashg'ulotlar jarayonida talabalar mustaqil ravishda ilmiy masalalarni tahlil qilish, ularning yechimlarini topish va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, o'z navbatida, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Pedagoglarning analitik tafakkur metodlarini o'qitish jarayonida samarali qo'llash bo'yicha malakasini oshirish ham dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki o'qituvchilar o'quvchilarga faqat tayyor bilimlarni yetkazib beruvchi emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, o'z izlanishlarini olib borishga va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu bois o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslari, ilmiy seminarlar va amaliy treninglar tashkil etilishi pedagogik jarayonning sifati oshishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalar yordamida Al-Xorazmiy ilmiy merosini o'rganishga yo'naltirilgan elektron resurslarni yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bugungi davrda talabalar bilim olishning turli zamonaviy manbalaridan foydalanishga intilmoqda. Maxsus elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar va onlayn o'quv platformalarining yaratilishi talabalarga Al-Xorazmiy asarlari va ularning zamonaviy ta'lim jarayoniga ta'siri haqida yanada chuqur bilim olish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quv jarayonining sifati oshirish, talabalarni mustaqil o'rganishga yo'naltirish va ularning ilmiy izlanishlarga bo'lgan qiziqishini oshirish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Xorazmiy, M. Al-jabr va al-muqobala. Toshkent: Fan nashriyoti, 1983-yil. 39-bet.
2. Al-Khwarizmi, M. The Compendious Book on Calculation by Completion and Balancing. New York: Princeton University Press, 2009-yil.
3. Dunlop, D. M. Al-Khwarizmi: The Father of Algebra. The American Mathematical Monthly, 58(10), 1951-yil, 623–631.
4. Kadirov, A. Al-Xorazmiy merosining ilmiy va amaliy ahamiyati. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2020-yil. 39-bet.
5. Raximov, U. Matematik tafakkurni rivojlantirishda algoritmik yondashuvlarning roli. Pedagogik mahorat jurnali, 2(1), 2017-yil, 45–52.
6. Alimov, R. Zamonaviy ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodlari. Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2018-yil. 39-bet.
7. Yusufov, B. O'zbek matematiklarining ilmiy merosi va uning ta'lim jarayonidagi o'rni. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021-yil.
8. Hoyrup, J. Algorithms and Algebra: Al-Khwarizmi's Influence on Mathematical Thinking. Oxford University Press, 1994-yil.
9. Rosen, K. H. Discrete Mathematics and Its Applications. New York: McGraw-Hill, 2011-yil.
10. Qosimov, M. Zamonaviy ta'limda algoritmik tafakkur va uning rivojlantirish usullari. Pedagogika fanlari instituti nashriyoti, 2019-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.